

TIRIK YETIMGA AYLANIB BORAYOTGAN BOLALARNI HUQUQIY MANFAATLARINI HIMOYA QILISHDA SUDLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YECHIMLARI

Xidirov Temur Qahramon o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Yashil” iqtisodiyot va barqaror biznes
kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8347533>

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatimizdagi eng katta dolzarb muammoga aylangan yosh oilalar o'rtasidagi nizolar, ajrimlar, tirik yetimga aylanib borayotgan bolalarni huquqiy manfaatlari, yashash tarzi, sudlarning holati, amaldagi qonunlarning tahlili, amaliyotdagi xatò va kamchiliklar, mahalla, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektorlari, yarashtiruv komissiyalari, oila institutlarining bugungi kundagi ahvoli hamda bolalarni huquqiy maanfatlarini himoya qilishga qaratilgan yangi innovatsion yechilarni amaliyotga tatbiq etishning ilmiy asoslari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: bolalar huquqi, bolalar maanfati, tirik yetim, oilaviy nizolar, ajrim, mahalla, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, oila instituti, sudlar faoliyati, innovatsiya, takomillashtirish, jarima, jazo, aliment, er-xotin.

Bizga ma'lumki, oila bu azal-azaldan jamiyatimizning asosiy negizi bo'lib, oila tushunchasi otobobolarimiz tomonidan doimo muqaddas tushuncha sifatida qadrlanib kelingan. Otobobolarimiz oilaviy nizolarni ham o'zaro hamjihatlikda, sabr bilan kelishuvlar asosida bartaraf etishgan va ko'plab oilalarni birdamligini saqlab qolishgan. Oilani asosini er-xotin munosabatlari tashkil etar ekan, ming afsuski bugungi kunda yoshlarimiz ushbu munosabatlarga yuzaki qarashi natijasida jamiyatimizda yosh oilalar o'rtasida ko'plab ajralishlarga sabab bo'lmoqda. Natijada esa ko'plab farzandalar otasiz yoki onasiz tirik yetimga aylanib qolmoqda. Bunga javoban milliy qonunchiligimizda tirik yetimga aylanib qolgan bolalarga faqatgina ota yoki ona tomonidan moddiy ta'minot ya'ni voyaga yetgunga qadar 18 yoshga to'lguncha aliment to'lovini undirish va 3 yoshgacha bo'lgan bolalarga esa qo'shimcha 3 yoshga to'lgunga qadar onalik ta'minoti uchun moddiy ta'minot undirish masalasi bilan cheklanib qolinmoqda. Afsuski, bugungi kunda qarib 99 foiz aksariyat hollarda farzandalar onalar qaramog'ida qolishmoqda. Farzandlarning ma'naviy tarbiyasi esa hamon muammoligicha qolib ketmoqda. Bu jiddiy masala bo'lib, bu muammoni yechimini hech kim bo'yniga olmagan na sudlar, na otalar bu masalaga yechim qaratishmagan. Natijada esa jamiyatimizda tirik yetimga aylanib borayotgan bolalarni huquqiy manfaatlari himoya qilishda hech qanday aniq tizim, mexanizm, loyiha yo'qligini bugungi ajrimlardan keyingi tirik yetimga aylangan bolalarning yashash tarzidan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Urf odatlarimizga ko'ra oila muqaddas bo'lib, bugungi kunda mamlakatimizda ko'plab yosh oilalar o'rtasida turli xil nizolar, muammolar, baxsli tortushuvlar ko'payib borayotganligi uchun ham yoshlar o'rtasida ajrimlar soni yildan-yilga yuqori sur'atlarda ortib bormoqda. Bu esa jamiyatimizda tirik yetimga aylanib borayotgan bolalarning ulushini ko'paytirmoqda. Dunyo tajribasiga qaraydigan bo'lsak oilaviy ajrimlarga bir qator omillar ta'sir etayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Ushbu mavzuda ilmiy tadqiqot olib borgan olim E.Timofeenko tomonidan oilaviy ajrimlarga ta'sir etayotgan bir qator omillarning tahlili quyidagi ko'rsatkichlarda keltirib o'tilgan: Bugungi kunda xalqaro miqyosidagi oilaviy ajrimlarning tahlilida alkogolizmga berilganlik (40%), er-xotin ota-onalaridan birining munosabatlariga aralashishi (15 %), uy-joyga ega emaslik yoki yashash sharoitining yetarlicha emasligi (14%), farzand ko'rishni istamaslik yoki turli sabablarga ko'ra farzand tug'ilmaligi (mos kelmasligi, bepushtlik, giyohvandlik, jiddiy kasallik 8%), er-xotinlarning har xil shaharlarda yashashlari (6 %), er-xotinlardan birining ozodlikdan mahrum etilganligi (2 %), bedavo kasallik (1%) yetakchi sabablar sifatida qayd etilgan¹. Bundan ko'rinadiki, oiladagi er-xotin munosabatlarining muvofiqligi va oilaviy munosabatlarning barqarorligi bugungi kunda barcha mamlakatlar uchun eng dolzarb masala sifatida hal qilinishi lozim muammo hisoblanadi.

Mamlakatimizdagi statistik ko'rsatkichlarga ham nazar tashlaydigan bo'lsak juda ham achinarli holatda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, ishonchli manba sifatida faoliyat olib borayotgan Kun.uz saytining ma'lumotlariga ko'ra joriy 2023 yilda oilaviy ajrimlar soni 2022 yilga nisbatan 23 % ga oshganligi to'g'risidagi ma'lumotlar qayt etilgan.

Bunda: O'zbekistonda 1-yanvardan 1-iyungacha 20 798 ta oila rasman ajrashgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 4700 taga ko'payganligi qayd etilgan.

Hududlar kesimida ajrimlar bo'yicha Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlari va Toshkent shahrida eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan, natijada esa sudlarning tegishli qarorlariga asosan - 14 986 ta, o'zaro rozilik asosida - 5 812 ta ajrim holati qayd etilgan bo'lib ² shundan 2023 yil holatiga ko'ra hududlar kesimida 1-jadvalda keltirilgan ajrimlar soni shakllantirilgan.

1-jadval

Hududlar kesimida ajrimlar soni bo'yicha tahliliy ko'rsatkichlar³

T/r.	Hududlar nomi	Ajrimlar soni
1	Andijon viloyati	800 ta
2	Farg'ona viloyati	793 ta
3	Toshkent shahri	732 ta
4	Namangan viloyati	706 ta
5	Toshkent viloyati	693 ta
6	Samarqand viloyati	368 ta
7	Qashqadaryo viloyati	368 ta
8	Surxondaryo viloyati	353 ta
9	Jizzax viloyati	248 ta
10	Sirdaryo viloyati	206 ta
11	Xorazm viloyati	176 ta
12	Buxoro viloyati	184 ta
13	Navoiy viloyati	109 ta
14	Qoraqalpog'iston R.	76 ta
Jami:		5812 ta

¹ Тимофеевко Е.Е. Проблема разводов в современном мире // Problema-razvodov-v-sovremennom-mire.pdf. – B. 103.

² <https://kun.uz/uz/news/2022/06/13/1-iyun-holatiga-qayd-etilgan-ajrimlar-soni-20-mingdan-oshdi>.

³ Kun.uz saytining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tahliliy ko'rsatkichlarga qaraydigan bo'lsak, yosh oilalar o'rtasidagi ajrimlar soni 1-jadvalda keltirib o'tilgan. Bundan ko'rinadiki, yosh ajrashgan 5812 ta oilalarda kamida o'rtacha 2 nafardan farzandlari bo'lsa agar 11624 nafar jamiyatimizda bolalar tirik yetimga aylangani ko'rishimiz mumkin. Bu juda ham achinarli holat bo'lib, tirik yetimga aylangan bolalarni ota yoki onasiz tarbiyalanishi jamiyatga qanchadan-qancha muammolarni yuzaga kelishiga, bolalarni hayotga bo'lgan munosabatlarini yomonlashuviga hamda bolalarda psixologik muammolarni yuzaga keltiradi. Natijada esa kelajak avlodni sog'lom fikrlashi, jamiyatda o'z o'rnini topishi juda ham qiyin kechadi. Bolalarda nafrat tuyg'ularini shakllanishi ortib boradi. Bugungi kunda yosh oilalarni o'zaro kelisha olmasliklari natijasida qanchadan-qancha bolalar tirik yetimga aylanib qolmoqda. Qani bu yerda jamiyatimizni, milliy qonunchiligimizni, bong urayotgan mustaqil faoliyat yuritish vakolati berilgan sudlarni yoki ajrashgan ota-onalarning roli? Hech qaysi biri bolalarni hayotiga mas'uliyat bilan qarayotgani yo'q, faqatgina bola kimni qaramog'ida qolsa o'sha shaxslar bola tarbiyasi bilan shug'ullanishmoqda.

Jamiyatimizdagi inson huquqlarini, bolalar huquqlarini himoya qilishga vakolati bo'lgan tashkilotlar esa bunday muammoga umuman bosh qotirishayotgani ham yo'q, chunki ularga tirik yetimga aylangan bolalarning taqdiri, huquq va maanfatlari umuman qiziq emas, qiziq bo'lganda sudlarni ahmoqona qarorlarini, milliy qonunchiligimizdagi qotib eskirib qolgan oila va bola munosabatlariga oid bo'lgan qonunlarni doimo zamon talabiga moslashtirish bo'yicha innovatsion yechimlarga ega bo'lgan aniq tizimda ishlaydigan tashabbuslarni amalga oshirish kerakligini ta'kidlashgan bo'lardi. Ming afsuski, qonunlar eskiligicha, sudlar faoliyati esa hamon ahmoqona tartib-qoidalar asosida qolmoqda. Tirik yetimga aylangan bolalarni huquqiy maanfatlarini himoya qilishga qaratilgan hech qanday aniq tizim, dastur yoki tashabbuslar hayotga tatbiq etilmasdan muammo sifatida qolib ketmoqda. Faqatgina moddiy ta'minot bo'lsa bolalar yaxshi yashay oladi degan bir tomonlama fikr yuritish amaliyoti hamon jadallik bilan ishlab kelmoqda.

Muhtaram, Prezidentimiz tashabbusi bilan yosh oilalarda ajrimlarni oldini olish va bolalarni huquqiy maanfatlarini himoya qilishga qaratilgan ko'plab farmonlar va qarorlar joriy etilmoqda. Yangi islohotlar amalga oshirilmoqda, sudlar faoliyatiga mustaqil tarzda ishlar olib borish vakolatlari berilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PF-87-sonli Farmonida quyidagi dolzarb masalalar keltirib o'tilgan:

2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur;

2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dasturni 2022-2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi;

xotin-qizlarga o'z tomorqasida gul va meva-sabzavot yetishtirish uchun issiqxona qurish, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va asalarichilikni yo'lga qo'yish uchun 35 million so'mgacha imtiyozli kreditlar ajratish⁴ kabi bir qator dolzarb vazifalar keltirilgan bo'lib, ularni ijrosini ta'minlash maqsadida hududlar kesimida ko'plab amaliy ishlar amalga oshirib

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PF-87-sonli Farmoni. 2022-yil 7-mart.

kelinmoqda.

Ming afsuski, shuncha imkoniyatlar yaratilishiga qaramasdan, yosh oilalarda ajrimlar soni yildan-yilga oshib, tirik yetim bolalar soni ko'payib bormoqda. Bunga sabab nimada sabab aniq tizimni mavjud emasligida, hamma sudlar mustaqilman deb o'qigan yoki o'qimagan sudyalarni joylarda sudya sifatida faoliyat olib borayotganligida ular tomonidan noto'g'ri qarorlarni chiqarilishi natijasida ko'plab oilalar ajrimiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda sudlar va sudyalar fuqarolik ishlariga yuzaki qarab kelmoqda. Chunki, sud va sudyalar tomonidan bir tomonlama fikr yuritilib, ishni qolidagi hujjat asosida ko'rayotganligi, yosh oilalarni yarashtirish mexanizmlarini umuman ishlatmasligi, shunchaki hujjatlarga qarab qonunga mos moddalardan kelib chiqib hukm chiqarishi eng katta muammo bo'lib bormoqda. Birorta tuman sudi yo sudyasi qani mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, yarashtiruv komissiyalari, oila institutlarini xulosasi, o'rganishlari yarashtirish bo'yicha olib borgan ishlari deb umuman qiziqib ham so'ramaydi. Ularni birortasini ham sudga chaqirmaydi holat bo'yicha nima ishlar olib bordingiz deb so'rab ham ko'rmaydi. Faqatgina eski tizim ikki tomonni eshitadi, kim da'vo ariza kiritgan bo'lsa, da'vogarga birinchi so'zni beradi uni vajlarini tinglaydi va ikkinchi so'zni javobgarga beradi uni vajlarini tinglaydi, da'vo arizaga ilova qilingan qo'lidagi hujjatlarni ko'rib u to'g'rimi yo noto'g'rimi qiziqg'i yo'q shunga asoslanib ahmoqona qarorini chiqaradi.

Mana bugungi kundagi amaliyotda bo'layotgan eng katta muammo, undan so'nng norozi tomon shahar yoki viloyat sudiga apellyatsiga beradi, foydasi yo'q tuman qarori o'zgarishsiz qoladi, undan so'ng Oliy sudga kassatsiya kiritadi yana o'zgarishsiz qoladi barchasi eski qonunlar va bir tomonlama yon bosish tizimida qaror chiqarishadi. Haqiqat esa umuman o'rganilmaydi 3 ta sud bosqichlarining barchasida faqatgina oilaviy nizolarda farzandlar onada qolgani uchun ayollarga yon bosiladi, ayol nohaq bo'lsa ham, foxishalik qilsa ham, tarbiyasi xulqi yomon bo'lsa ham, yolg'on so'zlasa ham farqi yo'q erkaklarni umuman eshitishmaydi. Hozirgi amaldagi sud tizimi faqat ayollar uchun ishlaydi. Ajrim bo'lmasdan alimentga va moddiy ta'minot undirishga tushishadi. Natijada esa yaxshi erkaklar ya'ni otalar ham xafsalasi pir bo'lib, aliment va moddiy ta'minot to'laydi, keyin jaxl ustida na farzandlarini, na ayolini so'raydi boshqaga uylanadi jamiyatda esa tirik yetimlar ko'paydi. Qani bu yerda sudlarni roli, haqiqat aslida sudlar sababchi emasmi?

Sudgacha bo'lgan quyi tizimlarni mana ishning natijasi ular vaqtida to'g'ri ish olib borishganda sudgacha vaziyat yetib bormasdi. Ularga ham qizig'i yo'q? Sen menga tegma-men ham senga tegmiman qabilida ishlab yurishibdi hammasi qog'ozda va rasmlarda aks etyapti achinarlisi birortasi ham bolalar huquqlarini himoya qilmaydi.

Mana tirik yetib bolalarni ko'payishiga qaysi tizimlar sababchi chunki yarashtirish bo'yicha aniq tizim yo'q aniq tizim bo'lganda edi tirik yetimlar ko'paymasdi.

Bundan ko'rinadiki, hozirgi amaldagi qonunlar oilani yarashtirishga emas otadan aliment va moddiy ta'minot undirishga, yosh oilalarni ajratishga va farzandlarni tirik yetim qolishiga qaratilgan xolos. Nohaqlikka chiday olmagan otalar ajrashadi, jamiyatda erkaklarni o'rni yo'qligidan jaxl ustida farzanlarini kelajagiga umuman qiziqmay qo'yadi. Onalar esa foxishalikka yo'l qo'yadi, jamiyatda buzuqlar soni ortib boradi. Bitta o'zi farzandlar tarbiyasini umuman boshqara olmaydi jamiyatda ahloqsiz bolalar soni ko'payishiga olib keladi.

Ushbu muammolarga innovatsion jihatdan samarali yechim topish zamon talabi bo'lib, muallif tomonidan ishlab chiqilgan quyidagi 2 ta innovatsion yechimlarni amaliyotga tatbiq etish

ushbu muammolarni bartaraf etilishiga xizmat qiladi. Quyidagi rasmda muallif tomonidan ishlab chiqilgan 1-innovatsion yechim keltirib o‘tilgan.




1-rasm. Maktablarda “Oila” fanini joriy etish va uning ahamiyati⁵.

Bundan ko‘rinadiki, 1-rasmda innovatsion yechim sifatida maktablarda oila fanini joriy etish masalasi berilgan bo‘lib uning dolzarb ekanligi asoslantirib berilgan. Bugungi kunda mamlakatimizdagi birorta maktabda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularga oila tushunchasini o‘rgatish, oilaviy nizolarni bartaraf etishga qaratilgan bilim va ko‘nikmalar umuman yoshlarga o‘rgatilmaydi. Mana bu eng katta muammo voyaga yetayotgan 9-11 sinflarga oila psixologiyasini, er-xotin munosabatlarini, farzand tarbiyasini, oila qurish madaniyatini oila fanida to‘liq tajribali mutaxassislar tomonidan bosqichma-bosqich 3 yil davomida nazariy va amaliy jihatdat o‘rgatib borish eng katta hayot maktabiga va innovatsion yechimga aylanadi. O‘quvchilar oila maktabiga ham tayyor bilim va ko‘nikma bilan to‘liq shakllanib boradi va oilaviy ajrimlar soni keskin kamayadi. Chunki, bolaligidan yoshlar ongiga singdirib borilsa yigit va qizlar ertaga ajrashishga emas baxtli yashashga doimo intiladi. Bu esa juda katta natija beradi va tirik yetimlar soni juda ham kamayadi. Baxtli oilalar soni ortib borishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi innovatsion yechim sifatida muallif tomonidan ishlab chiqilgan sudlar faoliyatini yangi qonun-qoidalar asosida takomillashtirish tizimi bo‘lib, quyidagi rasmda aks ettirilgan.

⁵ Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.



2-rasm. Sudlar faoliyatini yangi qonun-qoidalar asosida takomillashtirish tizimi⁶.

Bundan ko'rinadiki, 2-innovatsion yechimda sudlar faoliyatini takomillashtirish va ota-onalarni oilani saqlab qolishga bo'lgan majburiyatlarini oshirishga qaratilgan yangi qonun-qoidalar asosida ishlab chiqilgan aniq tizim ko'rsatib o'tilgan. Bugungi kunda bunday aniq tizim mavjud emasligi, jazolar yo'qligi uchun ham bolalar baxtsiz ularning huquqlari himoyasiz bo'lib qolmoqda.

Biz ishlab chiqqan tizim amaliyotga qo'llanilsa manaman degan ajrim yoqasidagi oilalar ham farzandlarini yo'qotmaslikka intiladi va bolalar uchun ham oilalarini saqlab qoladi. Ming

⁶ Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

afsuski, jazolar yo‘q faqatgina aliment va moddiy ta‘minot mavjud xolos er-xotin xoxlagan ishi bilan band erkaklar uylangan ayollar esa foxishalik qilgan bolalar esa baxtsiz qolgan zamonga aylanib qoldi. Bunday muammolarga ushbu ishlab chiqilgan aniq innovatsion tizim samarali yechim bo‘la oladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, oilani va farzandlarni qadriga yetmagan ota-onalarni farzandlaridan mahrum qilish kerak, ular tufayli guldek shirin-shakar go‘daklar tirik yetim bo‘lmoqda. Bolalarni huquqlari va maanfatlari buzilmoqda sudlarni kuchi yo‘qolmoqda. Dunyo tajribasida bolalarni yetim qilsa ota-onalik huquqidan va oddiy holat bolalarni xafa qilib urisa ham davlat tomonidan ota-onadan bolalrni olib qo‘yish, davlat qaramog‘ida saqlash amaliyoti mavjud. Bizda ham ushbu amaliyotlarni qo‘llash vaqti keldi ota-onalarni psixologik ruhiy ko‘rikdan o‘tkazish amaliyotini ham joriy etish, ular qachonki sog‘lom bo‘lsagina bolalarini qaytarib berish tizimlarini jamiyatimizga keng tatbiq etish lozim.

Farzandlar bu o‘yinchoq emas, ota-ona urshib qolsa tashlab ketadigan ular millatni kelajagi ular har tomonlama baxtli va sog‘lom bo‘lib o‘sishlari kerak. Ota-onalar buni uddaylay olmasa davlat o‘zi uddalaydigan zamonaviy tizimga o‘tish kerak, shundagina ajrimlar bo‘lmaydi va baxtli oilalar soni ortib boradi. Ajrashaman desa yuqoridagi jazolarni qo‘llash lozim, shundagina jamiyatda tirik yetimlar va foxishabozliklar soni kamayib boradi. Bolalarni qadrlash millatni ertangi ravnaqini belgilab beradi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PF-87-sonli Farmoni. 2022-yil 7-mart.
2. Тимофеев Е.Е. Проблема разводов в современном мире // Problema-razvodov-v-sovremennom-mire.pdf.-B. 103.
3. Karimova, G. M. (2021). Some comments on complete grammar. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(11), 200-203.
4. Машарипов, В. У., Мирвалиева, Н. Р., & Абдуллаев, У. М. (2023). Местный иммунитет и специфическая сенсibilизация к антигенам бактерий у больных тонзиллитом. Science and Education, 4(2), 392-400.
5. <https://kun.uz/uz/news/2022/06/13/1-iyun-holatiga-qayd-etilgan-ajrimlar-soni-20-mingdan-oshdi>.
6. Kun.uz saytining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.